

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING  
QARORI

**MAKTABGACHA, UMUMIY O‘RTA, O‘RTA MAXSUS, PROFESSIONAL VA  
MAKTABDAN TASHQARI TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI  
ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH CHORA-  
TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta‘lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son hamda “2017 — 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida” 2021-yil 3-fevraldagi PF-6155-son farmonlarida belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlash, shuningdek, maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta‘lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta‘lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son Farmoni **4-bandiga** hamda 2021-yil 3-fevraldagi PF-6155-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2017 — 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili”da amalga oshirishga oid **davlat dasturining** 228-bandiga muvofiq 2022-yil 1-yanvardan boshlab pedagog xodimlarga malaka toifasini berishning yangi tizimi joriy qilinayotganligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. Belgilab qo‘yilsinki, 2022-yil 1-yanvardan boshlab:

maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta‘lim tashkilotlari pedagog kadrlarini (keyingi o‘rinlarda — pedagog kadrlar) attestatsiyadan o‘tkazish bo‘yicha vazirliklar va idoralar, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri, tumanlar (shaharlar) hamda ta‘lim muassasalari miqyosidagi attestatsiya komissiyalari tuzish va yig‘ma jild orqali hujjat topshirish amaliyoti bekor qilinadi;

*Oldingi tahrirga qarang.*

*(2-bandning uchinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-dekabrda 692-sonli qaroriga asosan chiqarilgan — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 09/23/692/0997-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

*(2-bandning to‘rtinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-dekabrda 692-sonli qaroriga asosan chiqarilgan — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 09/23/692/0997-son)*

pedagog kadrlarga qog‘oz shaklidagi attestatsiyadan o‘tganlik to‘g‘risidagi sertifikat berish amaliyoti bekor qilinib, elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan va QR-kod qo‘yilgan elektron shakldagi sertifikat berish tartibi joriy etiladi;

pedagog kadrlarga ushbu qaror qabul qilingunga qadar berilgan attestatsiyadan o‘tganlik to‘g‘risidagi sertifikatlar o‘z kuchida qoladi hamda amaldagi malaka toifasini (lavozimini) tasdiqlashda va amal qilish muddati tugagunga qadar sertifikatda ko‘rsatilgan malaka toifasi (lavozimi) bo‘yicha bazaviy tarif stavkalari asosida haq to‘lashda hisobga olinadi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

2<sup>1</sup>. Belgilab qo‘yilsinki, 2024-yil 1-yanvardan boshlab:

maktabgacha, umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta‘lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi tomonidan, o‘rta maxsus va

professional ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan amalga oshiriladi;

pedagog kadrlarni attestatsiyadan o'tkazish va ularga malaka toifasi (lavozim) berish bo'yicha hujjatlarni qabul qilish pedagog kadrlar tomonidan davlat xizmatlari markazlariga borgan holda yoki mustaqil ravishda O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali yoxud tegishliliga bo'yicha Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining rasmiy veb-sayti orqali amalga oshiriladi.

*(2<sup>1</sup>-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-dekabrda 692-sonli qaroriga asosan kiritilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 09/23/692/0997-son)*

3. Quyidagilarni nazarda tutuvchi Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizom [1-ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin:

*Oldingi tahrirga qarang.*

maktabgacha, umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarining mutaxassislik fani va kasb standarti bo'yicha bilim darajasi hamda pedagogik mahoratini, o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarining pedagogik mahoratini va psixologik tayyorgarligini baholash hamda o'quv fani bo'yicha malakalarini sinovdan o'tkazish;

*(3-bandning ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-dekabrda 692-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 09/23/692/0997-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

davlat xizmatlari markazlari, O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali yoki Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining rasmiy veb-sayti orqali pedagog kadrlarning hujjatlarini onlayn qabul qilish hamda pedagog kadrlarga elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan va QR-kod qo'yilgan elektron shakldagi sertifikat berish;

*(3-bandning uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-dekabrda 692-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 09/23/692/0997-son)*

uzoq muddatli uzluksiz stajga va oliy malaka toifasiga ega pedagog kadrlarni attestatsiyadan o'tkazmasdan ularning oliy malaka toifasini saqlab qolish hamda nodavlat ta'lim tashkilotlarining pedagog kadrlarini ham attestatsiyadan o'tkazish va malaka toifasi berish.

4. Ta'lim inspeksiyasi 2022-yil 1-yanvarga qadar:

O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi bilan birgalikda Ta'lim inspeksiyasining budjetdan tashqari rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan "pedkadr.tdi.uz" platformasini ishlab chiqsin;

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat personallashtirish markazi va boshqa manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda shaxsga doir ma'lumotlar bo'yicha axborot tizimining "pedkadr.tdi.uz" platformasi bilan integratsiya qilinishini ta'minlasin.

*Oldingi tahrirga qarang.*

5. Tizimida maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari bo'lgan vazirliklar va idoralar:

*(5-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-dekabrda 692-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 09/23/692/0997-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

bo'ysunuvidagi o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlari tomonidan navbatdagi attestatsiyadan o'tadigan hamda navbatdan tashqari attestatsiyadan o'tish xohishini bildirgan pedagog kadrlarning pedagogik mahorati va psixologik tayyorgarligi baholanishini tashkil etsin hamda baholash natijalari yuzasidan ma'lumotnomaning pedagog kadrlarga o'z vaqtida taqdim etilishini ta'minlasin;

*(5-bandning ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-dekabrda 692-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 09/23/692/0997-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

attestatsiyadan o'tganiga besh yil to'lgan va besh yil davomida amaldagi malaka toifasini (lavozimini) himoya qilmagan yoki malaka toifasini (lavozimini) oshirmagan pedagog kadrlarni navbatdagi attestatsiyaga o'z vaqtida jalb etish choralarini ko'rsin.

*(5-bandning uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-dekabrda 692-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 09/23/692/0997-son)*

6. Belgilansinki:

pensiya yoshiga to'lgan pedagog kadrlar navbatdagi attestatsiyaga jalb etilmaydi, attestatsiyadan o'tganlik muddati tugashidan qat'i nazar ularning amaldagi malaka toifasi (lavozimi) saqlab qolinadi hamda mazkur malaka toifasi (lavozimi) bo'yicha ularga haq to'lanadi;

pensiya yoshiga to'lgan pedagog kadrlar o'z xohishiga ko'ra navbatdan tashqari attestatsiyadan o'tib, malaka toifasi (lavozimi) oshirilgan taqdirda, ularga yangi tasdiqlangan malaka toifasi (lavozimi) bo'yicha haq to'lanadi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

6<sup>1</sup>. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi:

2025-yil 1-yanvarga qadar pedagog kadrlarni attestatsiyadan o'tkazish va malaka toifalari berish tizimini xalqaro e'tirof etilgan vakolatli xorijiy tashkilotlarning akkreditatsiyasidan o'tkazish;

2025-yil 1-yanvardan boshlab pedagog kadrlarga xalqaro standartlar asosida malaka sertifikatini berish hamda sertifikat olgan pedagog kadrlarga bazaviy tarif stavkasining 70 foizi miqdorida ustama haq to'lash amaliyotini joriy etish choralarini ko'rsin.

*(6<sup>1</sup>-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-dekabrda 692-sonli qaroriga asosan kiritilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 09/23/692/0997-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

7. Pedagog kadrlarni attestatsiyadan o'tkazish jarayoni bilan bog'liq xarajatlar O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetidan Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga ajratilgan mablag'lar doirasida amalga oshirilishi belgilab qo'yilsin.

*(7-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-dekabrda 692-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 09/23/692/0997-son)*

8. Vazirlar Mahkamasining "Ta'lim muassasalarida chet tillarini o'qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017-yil 11-avgustdagi 610-son qarorining 3-bandi **uchinchi xatboshisi** chiqarib tashlansin.

9. O'zbekiston Respublikasi Hukumatining **2-ilovaga** muvofiq ayrim qarorlari o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

10. Ta'lim inspeksiyasi manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda o'zlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni bir oy muddatda ushbu qarorga muvofiqlashtirsin.

11. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining ijtimoiy rivojlantirish masalalari bo'yicha o'rinbosari B.A. Musayev, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi boshlig'i U.N. Tashkenbayev, maktabgacha ta'lim vaziri A.V. Shin, xalq ta'limi vaziri Sh.X. Shermatov hamda oliy va o'rta maxsus ta'lim vaziri A.H. Toshkulov zimmasiga yuklansin.

**O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV**

Toshkent sh.,  
2021-yil 17-sentabr,  
572-son

**Maktabgacha, umumiy oʻrta, oʻrta maxsus, professional va maktabdan tashqari taʼlim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan oʻtkazish tartibi toʻgʻrisida**

**NIZOM**

**1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Ushbu Nizom davlat maktabgacha, umumiy oʻrta, oʻrta maxsus, professional va maktabdan tashqari taʼlim tashkilotlari (keyingi oʻrinlarda — taʼlim tashkilotlari) pedagog kadrlarini (keyingi oʻrinlarda — pedagog kadrlar) attestatsiyadan oʻtkazish tartibini belgilaydi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Mazkur Nizom Oʻzbekiston Respublikasi Adliya vazirligining yuridik texnikumlari pedagog kadrlariga nisbatan tatbiq etilmaydi.

*(1-band Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 22-noyabrdagi 705-sonli qaroriga asosan xatboshi bilan toʻldirilgan — Qonunchilik maʼlumotlari milliy bazasi, 23.11.2021-y., 09/21/705/1082-son)*

2. Quyidagilar pedagog kadrlarni attestatsiyadan oʻtkazishning vazifalari hisoblanadi: pedagog kadrlarning taʼlim toʻgʻrisidagi hujjatida koʻrsatilgan tayyorlov, taʼlim yoʻnalishi, mutaxassisligi yoki ixtisosligi boʻyicha bilimlarini sinovdan oʻtkazish;

*Oldingi tahrirga qarang.*

maktabgacha, umumiy oʻrta va maktabdan tashqari taʼlim tashkilotlari pedagog kadrlarining mutaxassislik fani va kasb standarti boʻyicha bilim darajasi hamda pedagogik mahoratini, shuningdek, oʻrta maxsus va professional taʼlim tashkilotlari pedagog kadrlarining oʻz fanini bilishi, faoliyati samaradorligi, pedagogik mahorati, psixologik tayyorgarligini oʻrganish va xolisona baho berish hamda ularni ragʻbatlantirish;

*(2-bandning uchinchi xatboshisi Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-dekabrdagi 692-sonli qarori tahririda — Qonunchilik maʼlumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 09/23/692/0997-son)*

maktabgacha, umumiy oʻrta, oʻrta maxsus, professional va maktabdan tashqari taʼlim tashkilotlarini yuqori bilim saviyasiga ega boʻlgan, isteʼdodli va iqtidorli pedagog kadrlar bilan toʻldirish.

3. Attestatsiyaning asosiy prinsiplari majburiylik, davriylik, oshkoralik, kengashib ish koʻrish hamda xolislik hisoblanadi.

4. Pedagog kadrlar har besh yilda bir marta navbatdagi majburiy attestatsiyadan oʻtkaziladi. Ilgari attestatsiyadan oʻtmagan ishga yangi qabul qilingan pedagog kadrlarga yoki oliy taʼlim tashkilotlarini bitirib birinchi bor ishga kirgan pedagog kadrlar kasbiy faoliyatiga uch yil toʻlgandan soʻng navbatdagi majburiy attestatsiyadan oʻtkaziladi.

Pedagog kadrlar oʻz xohishiga koʻra navbatdan tashqari attestatsiyadan oʻtkazilishi mumkin.

Navbatdagi majburiy attestatsiya natijalariga koʻra amaldagi malaka toifasi (lavozimi) oshirilgan, saqlangan yoki tushirilgan, shuningdek, navbatdan tashqari attestatsiya natijalariga koʻra amaldagi malaka toifasi (lavozimi) oshirilgan yoki saqlangan pedagog kadrlar navbatdagi majburiy attestatsiyaga besh yildan soʻng jalb etiladi.

Pedagog kadrlarning majburiy attestatsiyaga oʻz muddatida jalb etilishi uchun pedagog kadr faoliyat koʻrsatayotgan taʼlim tashkilotining rahbari shaxsan javobgar hisoblanadi.

Pedagog kadrlarning attestatsiyasini tashkil etish va oʻtkazish ushbu Nizomga 1-ilovada keltirilgan sxemaga muvofiq amalga oshiriladi.

Nodavlat maktabgacha, umumiy oʻrta, oʻrta maxsus, professional va maktabdan tashqari taʼlim tashkilotlarining pedagog kadrlari oʻz xohishiga koʻra mazkur Nizom talablariga muvofiq navbatdan tashqari attestatsiyadan oʻtishi mumkin.

5. Attestatsiyaga taʼlim tashkilotlarining oliy maʼlumotli pedagog kadrlari jalb etiladi.

Ta'lim tashkilotlarining oliy ma'lumotga ega bo'lmagan pedagog kadrlari, shuningdek, ishlab chiqarish ta'limi ustalari kasbiy standartlar hamda xodimlarning har bir lavozim va kasb bo'yicha malaka darajasiga qo'yiladigan talablar asosida tizimida maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari bo'lgan vazirliklar va idoralar (keyingi o'rinlarda — manfaatdor vazirliklar va idoralar) tomonidan attestatsiyadan o'tkaziladi.

Ta'lim tashkilotlarining oliy ma'lumotga ega bo'lmagan pedagog kadrlari va ishlab chiqarish ta'limi ustalarini attestatsiyadan o'tkazish tartibi manfaatdor vazirliklar va idoralar tomonidan belgilanadi.

6. Quyidagilar navbatdagi majburiy attestatsiyaga jalb etilmaydi:

fan nomzodi, falsafa doktori (Doctor of Philosophy (PhD) yoki fan doktori (Doctor of Science (DSc) darajasiga hamda Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan berilgan katta ilmiy xodim, dotsent va professor ilmiy unvoniga ega bo'lgan pedagog kadrlar;

*Oldingi tahrirga qarang.*

oliy malaka toifa (bosh o'qituvchi lavozimi)ga ega bo'lganidan so'ng oliy malaka toifani 15 yil davomida saqlab kelgan va uzluksiz ish stajiga ega bo'lgan pedagog kadrlar;

*(6-bandning uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 2-avgustdagi 425-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 03.08.2022-y., 09/22/425/0712-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

pedagogik faoliyat bo'yicha 25 yil va undan ko'p ish stajiga ega bo'lgan pedagog xodimlar; yoshga doir pensiyaga chiqishi uchun 5 yildan ko'p bo'lmagan vaqt qolgan pedagog xodimlar;

*(6-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 23-martdagi 120-sonli qaroriga asosan to'rtinchi va beshinchi xatboshilar bilan to'ldirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 23.03.2023-y., 09/23/120/0161-son)*

pedagogik faoliyat bilan shug'ullanayotgan pensiya yoshiga to'lgan pedagog kadrlar; pedagogik faoliyat bo'yicha uch yildan kam bo'lgan ish stajiga ega pedagog kadrlar; homilador ayollar, ular homilador bo'lgan davrda hamda ishga chiqqanidan keyin bir yil davomida;

homiladorlik va tug'ish hamda bolani parvarish qilish ta'tillarida bo'lgan ayollar, ular ta'tilda bo'lgan davrda hamda ishga chiqqanidan keyin bir yil davomida;

pedagogik faoliyat bilan shug'ullanayotgan uch yoshgacha bolalari bor ayollar; uzoq (uch oydan ortiq vaqt mobaynida) davolanishni o'tayotgan pedagog kadrlar, ular davolanayotgan davrda hamda ishga chiqqanidan keyin olti oy davomida;

mazkur Nizomning 8 va 9-bandlarida ko'rsatilgan pedagog kadrlar, ularga malaka toifasi to'g'ridan-to'g'ri berilgan yoki bir pog'ona oshirilgan vaqtdan boshlab keyingi besh yil davomida;

respublika va chet el davlatlariga o'qishga, qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslariga yuborilgan pedagog kadrlar;

ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlar asosida raqobatlasha olmaydigan shaxslar uchun eng kam miqdordagi ish o'rinlariga zaxiraga olib ishga joylashtirilgan pedagog kadrlar, bu ish joylariga qabul qilingan kundan boshlab uch yil davomida.

Qonunchilik hujjatlariga muvofiq mazkur badda ko'rsatilmagan boshqa pedagog kadrlar ham navbatdagi majburiy attestatsiyadan ozod qilinishi mumkin.

7. Navbatdagi majburiy attestatsiyaga jalb etilmaydigan pedagog kadrlar o'z xohishiga ko'ra navbatdan tashqari attestatsiyadan o'tishlari mumkin.

Navbatdagi majburiy attestatsiyaga jalb etilmaydigan pedagog kadrlarning amaldagi malaka toifalari (lavozimlari) saqlanib qoladi hamda ularga ta'lim tashkilotlarida ishlagan davrida mazkur malaka toifasi (lavozimi) bo'yicha haq to'lanadi.

O'z xohishiga ko'ra navbatdan tashqari attestatsiyada qatnashib, malaka toifasini (lavozimini) oshirgan yoki saqlab qolgan pedagog kadrlarga oshirilgan yoki saqlab qolgan malaka toifasi (lavozim) bo'yicha haq to'lanadi.

O‘z xohishiga ko‘ra navbatdan tashqari attestatsiyada qatnashib, attestatsiyadan o‘ta olmagan pedagog kadrlarning malaka toifasi (lavozimi) tushirilmaydi hamda ularga navbatdan tashqari attestatsiyada qatnashishdan oldin amalda bo‘lgan malaka toifasi (lavozimi) bo‘yicha haq to‘lanadi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

8. Quyidagi pedagog kadrlarga malaka toifasi (lavozim) to‘g‘ridan-to‘g‘ri (attestatsiyadan o‘tkazilmasdan) beriladi:

*Oldingi tahrirga qarang.*

a) O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi tomonidan ro‘yxati tasdiqlanadigan sport musobaqalarining:

*(8-band “a” kichik bandining birinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-dekabrda 692-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 09/23/692/0997-son)*

tuman (shahar) bosqichi g‘olibini (1-o‘rin) tayyorlagan maktabgacha ta‘lim tashkilotlarining jismoniy tarbiya yo‘riqchilariga — ikkinchi malaka toifasi (katta o‘qituvchi lavozimi);

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar bosqichi g‘olibini (1-o‘rin) tayyorlagan maktabgacha ta‘lim tashkilotlarining jismoniy tarbiya yo‘riqchilariga — birinchi malaka toifasi (yetakchi o‘qituvchi lavozimi);

xalqaro hamda respublika bosqichi g‘olibi va sovrindorlarini (1 — 3-o‘rin) tayyorlagan maktabgacha ta‘lim tashkilotlarining jismoniy tarbiya yo‘riqchilariga — oliy malaka toifasi (bosh o‘qituvchi lavozimi);

b) belgilangan tartibda tasdiqlanadigan sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining respublika, hududiy va jismoniy tarbiya-sport tashkilotlari kalendar rejalariga kiritiladigan sport musobaqalarining:

tuman (shahar) bosqichi g‘olibini (1-o‘rin) tayyorlagan ta‘lim tashkilotlarining jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilariga — ikkinchi malaka toifasi (katta o‘qituvchi lavozimi);

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar bosqichi g‘olibini (1-o‘rin) tayyorlagan ta‘lim tashkilotlarining jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilariga — birinchi malaka toifasi (yetakchi o‘qituvchi lavozimi);

xalqaro hamda respublika bosqichi g‘olibi va sovrindorlarini (1 — 3-o‘rin) tayyorlagan ta‘lim tashkilotlari jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilariga — oliy malaka toifasi (bosh o‘qituvchi lavozimi);

v) jismoniy tarbiya fan olimpiadasining, shuningdek, “Besh tashabbus olimpiadasi”, olimpiya, noolimpiya va milliy sport turlari bo‘yicha uch bosqichli umumrespublika sport musobaqalarining:

tuman (shahar) bosqichi g‘olibi va sovrindorlarini (1 — 3-o‘rin) tayyorlagan umumiy o‘rta ta‘lim tashkilotlarining jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilariga — ikkinchi malaka toifasi (katta o‘qituvchi lavozimi);

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar bosqichi g‘olibi va sovrindorlarini (1 — 3-o‘rin) tayyorlagan umumiy o‘rta ta‘lim tashkilotlarining jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilariga — birinchi malaka toifasi (yetakchi o‘qituvchi lavozimi);

xalqaro hamda respublika (final) bosqichi g‘olibi va sovrindorlarini (1 — 3-o‘rin) tayyorlagan umumiy o‘rta ta‘lim tashkilotlarining jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilariga — oliy malaka toifasi (bosh o‘qituvchi lavozimi);

g) xalqaro matematika (IMO), fizika (IPhO), kimyo (IChO), biologiya (IBO) informatika (IOI) olimpiadalarida oltin, kumush yoki bronza medal (birinchi, ikkinchi va uchinchi o‘rin) sovrindorlarini tayyorlagan ta‘lim tashkilotlarining pedagog kadrlariga — oliy malaka toifasi (bosh o‘qituvchi lavozimi);

d) oliy malaka toifasiga (bosh o‘qituvchi lavozimiga) ega bo‘lganidan so‘ng oliy malaka toifasini (bosh o‘qituvchi lavozimini) 15 yil davomida saqlab kelgan va uzluksiz ish stajiga ega bo‘lgan pedagog kadrlarga — oliy malaka toifasi (bosh o‘qituvchi lavozimi);

*(8-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-oktabrdagi 612-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 20.10.2022-y., 09/22/612/0949-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

e) pedagogik faoliyat bo'yicha 25 yil va undan ko'p ish stajiga ega bo'lgan hamda yoshga doir pensiyaga chiqishi uchun 5 yildan ko'p bo'lmagan vaqt qolgan pedagog kadrlarga — ularning amaldagi malaka toifasi (lavozimi).

*(8-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-dekabrda 692-sonli qaroriga asosan "e" kichik band bilan to'ldirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 09/23/692/0997-son)*

9. Quyidagi pedagog kadrlarining malaka toifasi (lavozimi) bir pog'onaga oshiriladi:

O'zbekiston Respublikasining davlat mukofotlari bilan taqdirlangan pedagog kadrlar;

"Ustoz" milliy mukofoti g'oliblari;

Worldskills musobaqalari sovrindorlarini tayyorlagan ta'lim tashkilotlarining pedagog kadrlari;

respublika miqyosidagi fan olimpiadalari va ko'rik-tanlovlarda g'oliblikni qo'lga kiritgan o'quvchilarni tayyorlagan pedagog kadrlar;

*Oldingi tahrirga qarang.*

Pedagog kadrlarning malaka toifasini (lavozimini) bir pog'onaga oshirishda mazkur Nizom kuchga kirgandan keyingi erishilgan natijalar inobatga olinadi.

*(9-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-oktabrdagi 612-sonli qaroriga asosan oltinchi xatboshi bilan to'ldirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 20.10.2022-y., 09/22/612/0949-son)*

10. Ilgari attestatsiyadan o'tmagan ishga yangi qabul qilingan pedagog kadrlarga yoki oliy ta'lim tashkilotlarini bitirib birinchi bor ishga kirgan pedagog kadrlarga attestatsiyaga jalb etilgunga qadar quyidagi tartibda malaka toifasi (lavozim) beriladi:

bakalavr darajasiga ega pedagog kadrlarga — mutaxassis (oliy ma'lumotli o'qituvchi) lavozimi;

*Oldingi tahrirga qarang.*

*(10-bandning uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-oktabrdagi 612-sonli qaroriga asosan chiqarilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 20.10.2022-y., 09/22/612/0949-son)*

magistr darajasiga ega mutaxassislarga, shuningdek, oliy ma'lumot darajasi bo'yicha akademik darajalar joriy etilgunga qadar olingan oliy ma'lumotli pedagog kadrlarga — ikkinchi malaka toifasi (katta o'qituvchi lavozimi);

fan nomzodi, falsafa doktori (Doctor of Philosophy (PhD)) yoki fan doktori (Doctor of Science (DSc)) ilmiy darajasiga hamda Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan berilgan katta ilmiy xodim, dotsent va professor ilmiy unvoniga ega bo'lgan pedagog kadrlarga — oliy malaka toifasi (bosh o'qituvchi lavozimi).

11. Tuzilmasida maktabgacha, umumiy o'rta yoki maktabdan tashqari bo'g'inlari mavjud bo'lgan o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarining mazkur bo'g'inlarda dars berayotgan pedagog kadrlari attestatsiyadan maktabgacha, umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari uchun belgilangan tartibda o'tkaziladi.

12. Ta'lim tashkilotlari rahbarlari:

navbatdagi majburiy attestatsiyadan o'tish muddati tugashidan olti oy oldin pedagog kadrlarni attestatsiyadan o'tish lozimligi to'g'risida yozma ravishda xabardor qilishi;

*Oldingi tahrirga qarang.*

pedagog kadrlarni attestatsiyadan o'tkazish tartibi bilan tanishtirishi hamda o'rta maxsus, professional ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlari attestatsiyadan o'tish uchun hujjat topshirish boshlangunga qadar ularning pedagogik mahorati va psixologik tayyorgarligini baholashni tashkil etishi lozim.

*(12-bandning uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-dekabrda 692-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 09/23/692/0997-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

13. Attestatsiyaga doir tashkiliy masalalar Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (keyingi o'rinlarda — vakolatli vazirliklar), tizimida maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari bo'lgan vazirliklar va idoralar hamda ta'lim tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi.

*(13-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-dekabrda 692-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 09/23/692/0997-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

14. Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi attestatsiyaning mehnat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda pedagog kadrlarning huquqlari ta'minlangan holda o'tishini nazorat qiladi.

*(14-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-dekabrda 692-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 09/23/692/0997-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

15. Attestatsiyani o'tkazishda attestatsiya jarayonini qat'iy nazorat qilish tegishli vakolatli vazirliklar tomonidan amalga oshiriladi.

*(15-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-dekabrda 692-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 09/23/692/0997-son)*

Muvofiqlashtirish attestatsiya jadvalarini ishlab chiqishni va tasdiqlashni, attestatsiyani tashkil etishni, qo'shma qarorlar loyihalarini tayyorlashni, pedagog kadrlar uchun test, ijodiy, nazariy (og'zaki, yozma) va amaliy sinovlarni o'tkazishni hamda ularning natijalarini e'lon qilishni, attestatsiyadan o'tgan pedagog kadrlarga sertifikatlar berishni o'z ichiga oladi.

Attestatsiyani nazorat qilish uning natijalarini tahlil qilish, baholash, ushbu Nizom talablari buzilishining oldini olish hamda attestatsiyani tashkil etish va o'tkazish jarayonida yo'l qo'yilgan qoidabuzarliklar haqidagi ma'lumotnomalarni Vazirlar Mahkamasining tegishli kotibiyatiga, manfaatdor vazirlik va idoralarga hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yuborish orqali amalga oshiriladi.

## **2-bob. Attestatsiyadan o'tish uchun hujjat topshirish**

16. Pedagog kadrlar asosiy ish joyi bo'yicha attestatsiyaga jalb etiladi. Ta'lim tashkilotlarida o'rindoshlik asosida dars beradigan va asosiy ish joyi bo'yicha pedagogik faoliyat bilan shug'ullanmaydigan pedagog kadrlar o'rindoshlik asosida faoliyat yuritayotgan ta'lim tashkilotidan attestatsiyaga jalb etiladi.

17. Pedagog kadrlarning malaka toifalari (lavozimlari) boshqa ta'lim tashkilotlariga, ta'lim tashkilotlarining bir turidan boshqasiga yoxud nodavlat ta'lim tashkilotidan davlat ta'lim tashkilotiga ishga o'tganda saqlab qolinadi.

Bunda maktabgacha, umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarining ikkinchi malaka toifasi o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarining katta o'qituvchisi lavozimiga, birinchi malaka toifasi — yetakchi o'qituvchisi lavozimiga, oliy malaka toifasi — bosh o'qituvchisi lavozimiga tenglashtiriladi.

18. Pedagog kadrlar oliy ma'lumot olganligi yoki qayta tayyorlash kurslaridan o'tganligi haqidagi diplomda (keyingi o'rinlarda — diplom) ko'rsatilgan tayyorlov, ta'lim yo'nalishi, mutaxassislik yoki ixtisosligiga mos keladigan o'quv fanlar bo'yicha attestatsiyadan o'tadi.

Pedagog kadrlarning diplomida bittadan ortiq tayyorlov yoki ta'lim yo'nalishi, mutaxassislik yoki ixtisoslik ko'rsatilgan bo'lsa, ular dars berayotgan har bir o'quv fani bo'yicha alohida attestatsiyadan o'tadi, professional ta'lim tashkilotlarining umumkasbiy va maxsus fan o'qituvchilari bundan mustasno.



Professional ta'lim tashkilotlarida ikki yoki undan ortiq umumkasbiy va maxsus fanlardan dars berayotgan pedagog kadrlar o'quv yuklamasi ko'p bo'lgan bitta o'quv fani bo'yicha, bir nechta fandan o'quv yuklamasi teng miqdorda bo'lgan hollarda pedagog kadr tomonidan tanlangan o'quv fani bo'yicha attestatsiyadan o'tkaziladi.

Bunda professional ta'lim tashkilotlari umumkasbiy va maxsus fan o'qituvchilariga attestatsiya natijalari bo'yicha berilgan lavozimi ular dars berayotgan fan sohasi bo'yicha boshqa o'quv fanlariga ham tegishli bo'ladi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

19. Attestatsiyadan o'tish uchun pedagog kadrlar har yili 1-yanvardan 1-martga qadar va 1-avgustdan 1-oktabrga qadar bevosita davlat xizmatlari markazlari orqali yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali yoxud vakolatli vazirliklarning rasmiy veb-saytida ro'yxatdan o'tgan holda murojaat qiladilar.

*(19-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-dekabrda 692-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 09/23/692/0997-son)*

20. Pedagog kadrlarni navbatdagi majburiy attestatsiyadan o'tkazish bo'yicha davlat xizmatini ko'rsatganlik uchun yig'im undirilmaydi.

21. Pedagog kadrlarni navbatdan tashqari attestatsiyadan o'tkazish bo'yicha davlat xizmatini ko'rsatganlik uchun bazaviy hisoblash miqdorining bir baravari miqdorida yig'im undiriladi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali yoki vakolatli vazirliklarning rasmiy veb-sayti orqali murojaat qilinganda, yig'im summasining 90 foizi undiriladi.

*(21-bandning ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-dekabrda 692-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 09/23/692/0997-son)*

Pedagog kadrlarni navbatdan tashqari attestatsiyadan o'tkazish bo'yicha davlat xizmatini ko'rsatganlik uchun yig'im to'langanligi yagona billing tizimi orqali tasdiqlanadi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

22. Yig'im summasi quyidagi tartibda taqsimlanadi:

a) davlat xizmatlari markazlari orqali murojaat etilganda, yig'im summasining:

20 foizi — Adliya vazirligining davlat xizmatlarini rivojlantirish jamg'armasiga;

0,5 foizi — Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi "Elektron hukumat loyihalarini boshqarish markazi" davlat muassasasining Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi G'aznachilik xizmati qo'mitasidagi maxsus hisobvarag'iga;

50 foizi — vakolatli vazirliklarning budjetdan tashqari jamg'armasiga;

qolgan qismi — Davlat budjetiga o'tkaziladi;

b) Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali murojaat etilganda, yig'im summasining:

10 foizi — Adliya vazirligining davlat xizmatlarini rivojlantirish jamg'armasiga;

11,75 foizi (shundan 0,5 foizi — yagona billing tizimi orqali davlat xizmati ko'rsatilganda)

— Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi "Elektron hukumat loyihalarini boshqarish markazi" davlat muassasasining Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi G'aznachilik xizmati qo'mitasidagi maxsus hisobvarag'iga;

50 foizi — vakolatli vazirliklarning budjetdan tashqari jamg'armasiga;

qolgan qismi — Davlat budjetiga o'tkaziladi;

v) vakolatli vazirliklarning rasmiy veb-sayti orqali murojaat etilganda, yig'im summasining:

0,5 foizi — Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi "Elektron hukumat loyihalarini boshqarish markazi" davlat muassasasining Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi G'aznachilik xizmati qo'mitasidagi maxsus hisobvarag'iga;

20 foizi — Davlat budjetiga;

qolgan qismi — vakolatli vazirliklarning budjetdan tashqari jamg'armasiga o'tkaziladi.

Pedagog kadr attestatsiyadan o'tkazish bo'yicha davlat xizmati ko'rsatilishidan voz kechgan, amaldagi malaka toifasini (lavozimini) himoya qila olmagan va attestatsiyadan o'ta olmagan taqdirda, to'langan yig'im qaytarib berilmaydi.

Pedagog kadrlar uzrli sabablarga ko'ra attestatsiyaga kelmaganligi tufayli ularning attestatsiyasi boshqa muddatga ko'chirilgan taqdirda, yig'im takroran undirilmaydi.

*(22-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-dekabrda 692-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 09/23/692/0997-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

23. Bevosita davlat xizmatlari markazlariga murojaat qilinganda pedagog kadr nomidan davlat xizmatlari markazi xodimi, Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali yoki vakolatli vazirliklarning rasmiy veb-sayti orqali murojaat qilinganda esa pedagog kadrning o'zi mustaqil ravishda ushbu Nizomga 2-ilovaga muvofiq so'rovnomanini (keyingi o'rinlarda — so'rovnoma) elektron tarzda to'ldiradi.

*(23-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-dekabrda 692-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 09/23/692/0997-son)*

So'rovnomaga quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:

pedagog kadrning ta'lim to'g'risidagi hujjati (xorijiy davlatda ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjatni O'zbekiston Respublikasida tan olish haqidagi guvohnoma);

qayta tayyorlash kurslaridan o'tganligi haqidagi diplom nusxasi (agar mavjud bo'lsa);

*Oldingi tahrirga qarang.*

pedagog kadrning pedagogik mahorati va psixologik tayyorgarligini baholash natijalari yuzasidan ma'lumotnoma (o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlari pedagoglari uchun).

*(23-bandning beshinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-dekabrda 692-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 09/23/692/0997-son)*

Pedagog kadrlardan ushbu bandda ko'rsatilmagan hujjatlarni taqdim etishni talab qilish taqiqlanadi.

Taqdim etilgan hujjatlardagi ma'lumotlarning haqqoniyligiga pedagog kadr mas'ul hisoblanadi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

24. Pedagog kadr o'zi kelib murojaat etganda, davlat xizmatlari markazlari tomonidan so'rovnoma to'ldirilgandan so'ng ariza beruvchi ma'lumotlarning to'g'riligini tekshirib, so'rovnomanini imzolarni identifikatsiya qilishning tegishli vositalari (ERI, daktiloskopiya, elektron imzo, Mobil-ID va boshqalar) bilan tasdiqlaydi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Pedagog kadr Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali yoki vakolatli vazirliklarning rasmiy veb-sayti orqali murojaat etgan taqdirda, so'rovnomanini ERI bilan tasdiqlash talab etilmaydi. Bunda so'rovnoma pedagog kadr tomonidan dasturga kiritilgan telefon raqamiga yoki elektron pochta manziliga avtomatik tarzda yuboriladigan SMS-xabarnoma orqali tasdiqlanadi.

*(24-bandning ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-dekabrda 692-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 09/23/692/0997-son)*

25. Noto'g'ri ma'lumotlar yoki qalbaki hujjatlar taqdim etilganligi aniqlangan har qanday bosqichda pedagog kadrning hujjatlarini qabul qilish va attestatsiyadan o'tkazish jarayoni to'xtatiladi, topshirilgan hujjatlar va to'langan yig'im qaytarilmaydi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Pedagog kadrlar tomonidan topshirilgan hujjatning qalbaki ekanligini aniqlash vakolatli vazirliklarda mavjud bo'lgan ma'lumotlar asosida amalga oshiriladi. Mavjud bo'lgan ma'lumotlar asosida pedagog kadrlar tomonidan topshirilgan hujjatlarning haqqoniyligini aniqlash imkoni bo'lmagan taqdirda, tegishli vakolatli tashkilotlarga so'rovnoma yuboriladi.

*(25-bandning ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-dekabrda 692-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 09/23/692/0997-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Pedagog kadrlar tomonidan topshirilgan hujjatlar qalbaki ekanligi aniqlangan taqdirda, mazkur hujjatlar vakolatli vazirliklar tomonidan qonunchilik hujjatlariga muvofiq chora ko'rish uchun tegishli huquqni muhofaza qiluvchi organlarga taqdim etiladi.

*(25-bandning uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-dekabrda 692-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 09/23/692/0997-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

26. Quyidagi holatlarda davlat xizmatlari markazi yoki vakolatli vazirliklar tomonidan davlat xizmatlari ko'rsatilishi rad etilishi mumkin:

*(26-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-dekabrda 692-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 09/23/692/0997-son)*

pedagog kadrlar tomonidan so'rovnomaning elektron raqamli imzo yoki imzoni identifikatsiya qilishning boshqa vositalari yoxud SMS-xabarnoma bilan tasdiqlanmaganligi;

pedagog kadrlar tomonidan noto'g'ri ma'lumotlar yoki qalbaki hujjatlar taqdim etilgani ma'lum bo'lib qolganligi;

so'rovnoma va unga ilova qilingan hujjatlarning to'liq taqdim etilmaganligi;

attestatsiyadan o'tkazish bo'yicha davlat xizmati ko'rsatganlik uchun belgilangan yig'imning to'lanmaganligi (pedagog kadrni navbatdagi majburiy attestatsiyadan o'tkazish holatlari bundan mustasno).

Davlat xizmatlari ko'rsatishni mazkur bandda ko'rsatilgan asoslardan boshqa holatlar bo'yicha rad etishga yo'l qo'yilmaydi.

27. Pedagog kadr davlat xizmatidan foydalanishdan uni ko'rsatishning har qanday bosqichida bosh tortishga haqli (pedagog kadrni navbatdagi majburiy attestatsiyadan o'tkazish holatlari bundan mustasno).

Pedagog kadr davlat xizmatidan foydalanishdan bosh tortganda to'langan yig'im qaytarilmaydi.

Pedagog kadrga bog'liq bo'lmagan holatlar (pedagog kadrning vafot etishi, mehnatga layoqatsiz bo'lib qolishi yoki pedagog kadr bilan mehnat shartnomasi bekor qilinishi tufayli davlat xizmatidan foydalanish zarurati mavjud emasligi) sababli davlat xizmatidan foydalanilmagan taqdirda, to'langan yig'im pedagog kadr yoki uning qonuniy vakiliga qaytariladi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

28. Pedagog kadr davlat xizmatlari markaziga kelib murojaat etgan taqdirda, uning so'rovnomasi davlat xizmatlari markazi xodimi tomonidan to'ldirilib, pedagog kadr tomonidan tasdiqlangandan so'ng 10 daqiqa mobaynida, Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali murojaat etganda, avtomatik tarzda vakolatli vazirliklarga elektron shaklda yuboriladi.

*(28-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-dekabrda 692-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 09/23/692/0997-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

29. Hujjatlar to'liq taqdim etilganda vakolatli vazirliklar tomonidan hujjatlar qabul qilinganligi to'g'risida davlat xizmatlari markaziga yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali yoxud vakolatli vazirliklarning rasmiy veb-sayti orqali pedagog kadrlarga xabarnoma yuboriladi.

*(29-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-dekabrda 692-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 09/23/692/0997-son)*

Ushbu xabarnoma QR-kodga ega bo'lib, bunda pedagog kadrni attestatsiyaga jalb qilish sanalari, jalb qilinadigan fani, pedagog kadrning shaxsiy ma'lumotlari aks ettiriladi hamda shaxsni

tasdiqlovchi hujjat bilan elektron yoki bosma ravishda taqdim etilganda, attestatsiya jarayoniga kirish uchun ruxsatnoma sifatida foydalaniladi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

30. Hujjatlar to'liq taqdim etilmagan hollarda vakolatli vazirliklar tomonidan hujjatlar qabul qilinmaganligi to'g'risida davlat xizmatlari markaziga yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali yoxud vakolatli vazirliklarning rasmiy veb-sayti orqali pedagog kadrlarga xabarnoma yuboriladi.

*(30-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-dekabrda 692-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 09/23/692/0997-son)*

Pedagog kadrlar hujjat qabul qilish to'xtatilgunga qadar kamchiliklarni tuzatgan holda hujjatlarni qayta topshirishlari mumkin. Bunda pedagog kadrdan davlat xizmatini ko'rsatganlik uchun yig'im takroran undirilmaydi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

31. Pedagog kadrlardan hujjatlarni qabul qilish har yili 1-mart va 1-oktabr sanalarida to'xtatiladi.

Vakolatli vazirliklar tomonidan maktabgacha, umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlari uchun mutaxassislik fani va kasb standarti bo'yicha bilim darajasini aniqlash hamda pedagogik mahoratini baholash, o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlari uchun o'quv fani bo'yicha malaka sinovlarini (keyingi o'rinlarda — malaka sinovlari) o'tkazish shakli hamda jadvali har yili 10-mart va 10-oktabrga qadar tasdiqlanib, ularning rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi, tegishli vazirliklar va idoralarga hamda SMS-xabarnoma orqali pedagog kadrlarga yuboriladi.

*(31-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-dekabrda 692-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 09/23/692/0997-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

31<sup>1</sup>. Malaka sinovlari quyidagi shakllardan biri bo'yicha o'tkaziladi:

test sinovlari;

ijodiy;

nazariy (og'zaki, yozma);

nazariy (og'zaki, yozma) va amaliy.

*(31<sup>1</sup>-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-dekabrda 692-sonli qaroriga asosan kiritilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 09/23/692/0997-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

32. Mazkur Nizomning 8 — 10-bandlarida ko'rsatilgan pedagog kadrlar har yili 1-yanvardan 31-dekabrda qadar to'g'ridan-to'g'ri attestatsiyadan o'tkazilmasdan malaka toifasi (lavozim) sertifikatini olish uchun bevosita davlat xizmatlari markazlari orqali yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali yoxud vakolatli vazirliklarning rasmiy veb-saytida ro'yxatdan o'tgan holda murojaat qiladilar.

*(32-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-dekabrda 692-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 09/23/692/0997-son)*

Mazkur Nizomning 8 — 10-bandlarida ko'rsatilgan pedagog kadrlarga to'g'ridan-to'g'ri attestatsiyadan o'tkazmasdan malaka toifasi (lavozim) sertifikatini berish bo'yicha davlat xizmatini ko'rsatganlik uchun yig'im undirilmaydi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Bevosita davlat xizmatlari markazlariga murojaat qilinganda mazkur Nizomning 8 — 10-bandlarida ko'rsatilgan pedagog kadr nomidan davlat xizmatlari markazi xodimi, Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali yoki vakolatli vazirliklarning rasmiy veb-sayti orqali murojaat qilinganda esa pedagog kadrning o'zi mustaqil ravishda ushbu Nizomga 3-ilovaga muvofiq so'rovnomani elektron tarzda to'ldiradi.

*(32-bandning uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-dekabrda 692-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 09/23/692/0997-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Vakolatli vazirliklar tomonidan mazkur Nizomning 8 — 10-bandlarida ko'rsatilgan pedagog kadrning to'g'ridan-to'g'ri attestatsiyadan o'tkazilmasdan malaka toifasi (lavozim) sertifikatini olish bo'yicha so'rovnomasi 20 kun muddatda ko'rib chiqiladi va ijobiy qaror qabul qilinganda ularga mazkur Nizomga 4-ilovaga muvofiq QR-kod qo'yilgan elektron shakldagi sertifikat beriladi.

*(32-bandning to'rtinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-dekabrda 692-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 09/23/692/0997-son)*

### **3-bob. Pedagog kadrlarni attestatsiyadan o'tkazish**

*Oldingi tahrirga qarang.*

33. Pedagog kadrlarni attestatsiyadan o'tkazish ikki bosqichda amalga oshiriladi hamda ikkita bosqich bo'yicha umumiy 100 ballik tizimda baholanadi.

Bunda:

maktabgacha, umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'lim pedagog kadrlari bo'yicha birinchi bosqichda — pedagogning mutaxassislik fani va kasb standarti bo'yicha bilim darajasi, ikkinchi bosqichda — pedagogik mahorati baholanadi;

o'rta maxsus va professional ta'lim pedagog kadrlari bo'yicha birinchi bosqichda — pedagog kadrning pedagogik mahorati va psixologik tayyorgarligi baholanadi, ikkinchi bosqichda — o'quv fani bo'yicha bilim darajasi baholanadi.

*(33-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-dekabrda 692-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 09/23/692/0997-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

34. O'rta maxsus va professional ta'lim tashkiloti pedagog kadrlarining birinchi bosqichda pedagogik mahorati va psixologik tayyorgarligi ta'lim tashkilotining pedagogik (kuzatuv) kengashlari tomonidan o'rganiladi hamda mazkur Nizomga 5-ilovaga muvofiq baholash mezonlari asosida 20 ballik tizimda baholanadi.

*(34-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-dekabrda 692-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 09/23/692/0997-son)*

Pedagog kadrlarning pedagogik mahorati va psixologik tayyorgarligi har bir attestatsiya uchun alohida baholanadi. Bunda oldingi attestatsiya jarayonida baholash obyekti bo'lgan ko'rsatkichlar keyingi attestatsiyaning pedagogik mahorat va psixologik tayyorgarlikni baholash bosqichida hisobga olinmaydi.

Manfaatdor vazirliklar va idoralar pedagog kadrlarning pedagogik mahorati va psixologik tayyorgarligini mazkur Nizomga 5-ilovaga muvofiq baholash mezonlari asosida o'rganish va baholash uchun o'z tizimidagi muassasalarni yoki mazkur faoliyatni amalga oshirishga ixtisoslashgan boshqa tashkilotlarni, shuningdek, mahalliy va xorijiy mutaxassislarni jalb qilishlari mumkin.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Pedagog kadrlarning pedagogik mahorati va psixologik tayyorgarligini baholash natijalari ushbu Nizomga 6-ilovaga muvofiq shakldagi ma'lumotnomaga kiritilib, ta'lim tashkiloti rahbarining imzosi va muhri bilan tasdiqlangan holda, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga topshirish uchun pedagog kadrlarga taqdim etiladi.

*(34-bandning to'rtinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-dekabrda 692-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 09/23/692/0997-son)*

Pedagog kadrlar pedagogik mahorat va psixologik tayyorgarlikni baholash natijalari yuzasidan ma'lumotnomada necha ball ko'rsatilganidan qat'i nazar, attestatsiyaning keyingi bosqichida ishtirok etishlari mumkin.

Pedagogik mahorat va psixologik tayyorgarlikni baholash natijalari yuzasidan ma'lumotnoma attestatsiyadan o'tish uchun hujjat topshirish boshlangan sanaga qadar ko'pi bilan to'rt oy muddat ichida berilgan bo'lishi lozim.

*(34-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-oktabrdagi 612-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 20.10.2022-y., 09/22/612/0949-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

34<sup>1</sup>. Maktabgacha, umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlari uchun attestatsiyaning birinchi bosqichida — pedagogning mutaxassislik fani va kasb standarti bo'yicha bilim darajasini aniqlash maqsadida 40 ta test topshirig'i beriladi.

Har bir to'g'ri bajarilgan test topshirig'i 2 ball bilan baholanib, test sinovlari uchun jami 80 ball beriladi.

*(34<sup>1</sup>-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-dekabrda 692-sonli qaroriga asosan kiritilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 09/23/692/0997-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

35. Maktabgacha, umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlari uchun ikkinchi bosqichda — pedagogik mahoratni aniqlash maqsadida ilg'or pedagogik uslub va texnologiyalarni ("case study" uslubi, loyihalar uslubi, hamkorlikda o'qitish, "amaliy o'yin", interfaol ta'lim uslubi va boshqalar) qo'llash bo'yicha 10 ta topshiriq beriladi. Har bir to'g'ri berilgan javob 2 ball bilan baholanib, jami 20 ball beriladi.

O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlari uchun ikkinchi bosqichda — pedagogning o'quv fani bo'yicha bilim darajasini aniqlash uchun 40 ta test topshirig'i beriladi.

Har bir to'g'ri bajarilgan test topshirig'i 2 ball bilan baholanib, test sinovlari uchun jami 80 ball beriladi.

*(35-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-dekabrda 692-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 09/23/692/0997-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

36. Pedagog kadrlar uchun malaka sinovlari har yili mart — may hamda oktyabr — noyabr oylarida vakolatli vazirliklar tomonidan o'tkaziladi.

Malaka sinovlari sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalariga qat'iy rioya qilgan holda o'tkaziladi.

Umumiy o'rta, o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarining kamida S1 darajadagi milliy yoki unga mos darajadagi xalqaro sertifikatga ega chet (ingliz, fransuz, nemis, ispan, italyan, arab, xitoy, yapon, koreys, turk, fors, pushtu, dari, urdu, hind) tili fani o'qituvchilariga navbatdagi majburiy attestatsiyada mutaxassislik fani va kasb standarti bo'yicha bilim darajasini aniqlash hamda o'quv fani bo'yicha malaka sinovidan maksimal 80 ball beriladi hamda ular ushbu malaka sinovidan ozod etiladi.

*(36-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-dekabrda 692-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 09/23/692/0997-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

37. Mutaxassislik fani va kasb standarti bo'yicha bilim darajasini aniqlash hamda o'quv fani bo'yicha malaka sinovlari:

*(37-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-dekabrda 692-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 09/23/692/0997-son)*

madaniyat va san'atga (tasviriy va amaliy san'at, dizayn, musiqa, teatr, sirk va xoreografiyaga) ixtisoslashtirilgan ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlari uchun — ijodiy sinovlar shaklida;

jismoniy tarbiya va sportga ixtisoslashtirilgan ta'lim tashkilotlarining pedagog kadrlari uchun — nazariy (og'zaki, yozma) sinovlar shaklida;

ta'lim tashkilotlarining jismoniy tarbiya fani o'qituvchilari uchun — nazariy (og'zaki, yozma) va amaliy sinovlar shaklida o'tkaziladi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Mutaxassislik fani va kasb standarti bo'yicha bilim darajasini aniqlash hamda o'quv fani bo'yicha malaka sinovlari chet tili fani o'qituvchilari uchun tinglab tushunish, o'qish, yozish va gapirish ko'nikmasini baholashga qaratilgan ijodiy sinovlar shaklida o'tkaziladi.

*(37-bandning beshinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-dekabrda 692-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 09/23/692/0997-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Mutaxassislik fani va kasb standarti bo'yicha bilim darajasini aniqlash hamda o'quv fani bo'yicha malaka sinovlari chet tili fani o'qituvchilari, madaniyat va san'atga, jismoniy tarbiya va sportga ixtisoslashtirilgan ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlari hamda ta'lim tashkilotlarining jismoniy tarbiya fani o'qituvchilari uchun test sinovlari shaklida ham tashkil etilishi mumkin.

*(37-bandning oltinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-dekabrda 692-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 09/23/692/0997-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

38. Ijodiy, nazariy (og'zaki, yozma), amaliy sinovlar vakolatli vazirliklar hamda manfaatdor vazirliklar va idoralarning qo'shma qarori bilan ro'yxati tasdiqlanadigan ishchi guruhlar tomonidan har yili mart — may hamda oktyabr-noyabr oylarida o'tkaziladi va mazkur Nizomga 7-ilovaga muvofiq baholash mezonlari asosida baholanadi.

*(38-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-dekabrda 692-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 09/23/692/0997-son)*

Ishchi guruh a'zolarining uchdan ikki qismi ishtirok etganda yig'ilish vakolatli hisoblanadi.

39. Madaniyat va san'atga, jismoniy tarbiya va sportga ixtisoslashtirilgan ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlari uchun ijodiy va nazariy (og'zaki, yozma) sinovlar to'rtta topshiriqdan (savoldan) iborat bo'ladi va belgilangan vaqtda, to'liq, to'g'ri va sifatli bajarilganligiga (to'g'ri javob berilganiga) ko'ra har bir topshiriq uchun 20 balldan, jami 80 ballik tizimda baholanadi.

40. Ta'lim tashkilotlarining jismoniy tarbiya fani o'qituvchilari uchun nazariy (og'zaki, yozma) sinovlar to'rtta savoldan iborat bo'ladi va belgilangan vaqtda, to'liq, to'g'ri va sifatli javob berilganligi ko'ra har bir topshiriq uchun 5 balldan, jami 20 ballik tizimda baholanadi.

Ta'lim tashkilotlarining jismoniy tarbiya fani o'qituvchilari uchun amaliy sinovlar to'rtta jismoniy mashqdan (100 metrga yugurish, joyidan turib uzunlikka sakrash, turnikda tortilish (erkaklar uchun), gimnastika o'rindig'iga tayanib, qo'llarni bukish va yoyish (ayollar uchun), yotgan holda qo'llarni bosh orqasiga qo'yib gavadani ko'tarish) iborat bo'ladi, har bir mashq uchun 15 balldan, jami 60 ballik tizimda mazkur Nizomga 8-ilovaga muvofiq amaliy sinovlar normativlari asosida baholanadi.

Aholining jismoniy tayyorgarlik darajasini baholash tizimida yoshiga mos keladigan ixtiyoriy talablarni muvaffaqiyatli bajargan ta'lim tashkilotlarining jismoniy tarbiya fani o'qituvchilari amaliy sinovlardan ozod etiladi va ularga mazkur sinovlardan maksimal 60 ball beriladi.

41. Ijodiy va nazariy (og'zaki, yozma) sinovlar materiallari tizimida madaniyat va san'at, jismoniy tarbiya va sportga ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari bo'lgan vazirliklar va idoralar tomonidan ishlab chiqiladi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

42. Malaka sinovlari Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar markazlari va Toshkent shahrida joylashgan ta'lim tashkilotlarida hamda boshqa tashkilotlarning katta sig'imdagi binolarida oshkoralik va shaffoflikni ta'minlagan holda o'tkaziladi.

*(42-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-dekabrda 692-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 09/23/692/0997-son)*

Ta'lim tashkilotlarining jismoniy tarbiya fani o'qituvchilari uchun amaliy sinovlar ta'lim tashkilotlarining stadionlarida yoki sport zallarida o'tkaziladi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

43. Attestatsiya jarayoni uchun sinov materiallari vakolatli vazirliklar tomonidan testologiyaning xalqaro talablari asosida, xolislik va maxfiylikni ta'minlagan holda shakllantiriladi.

Attestatsiya jarayoni uchun sinov materiallarini shakllantirish uchun vakolatli vazirliklar tomonidan manfaatdor vazirliklar va idoralar, ularning hududiy va idoraviy bo'ysunuvidagi tashkilotlar, ilmiy-tadqiqot institutlarining yetakchi olimlari va malakali mutaxassislari, mahalliy va xorijiy ekspertlar, shuningdek, nodavlat tashkilotlar vakillari jalb etilishi mumkin.

Sinov materiallarini shakllantirish uchun jalb etiladigan shaxslarga vakolatli vazirliklar bilan tuziladigan shartnomalar asosida haq to'lanadi.

*(43-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-dekabrda 692-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 09/23/692/0997-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

43<sup>1</sup>. Chet tili fani o'qituvchilari uchun o'quv (maxsus) fani bo'yicha malaka sinovlari quyidagi bo'limlardan iborat bo'ladi:

a) "tinglab tushunish" bo'limi og'zaki nutqni qabul qilish ko'nikmalarini, eshitilgan matnlardagi asosiy fikr va detalni tushunish mahoratini tekshiradi;

b) "o'qish" bo'limi o'qilgan matnlardagi asosiy fikr va detalni tushunish mahoratini tekshiradi;

v) "yozma ish" bo'limi tegishli darajadagi grammatik tuzilishdan va talabgorning lug'at zaxirasidan foydalangan holda, berilgan mavzular bo'yicha bir-biri bilan bog'langan matnlarni tuzish mahoratini tekshiradi;

g) "gapirish" bo'limi tegishli darajadagi grammatik tuzilishdan va lug'at zaxirasidan foydalangan holda, berilgan savollarga mos javob berish va o'z nuqtai nazarini asoslash mahoratini tekshiradi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

43<sup>2</sup>. Chet tili fani o'qituvchilari uchun o'quv (maxsus) fani bo'yicha malaka sinovi qog'oz blankalarda yoki kompyuterda (onlayn platforma orqali) o'tkazilishi mumkin. Malaka sinovini o'tkazish joyi vakolatli vazirliklar tomonidan belgilanadi.

*(43<sup>2</sup>-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-dekabrda 692-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 09/23/692/0997-son)*

Yozma yoki og'zaki malaka sinovi uchun imtihon komissiyasi tashkil etiladi.

Imtihon komissiyasining tarkibi Ta'lim inspeksiyasi rahbarining buyrug'i bilan tasdiqlanadi va unga Ta'lim inspeksiyasi xodimlari, tajribali pedagoglar va malakali mutaxassislar kiritiladi.

Malaka sinovi qog'oz blankalarda o'tkazilganda, ikki bosqichdan iborat bo'ladi. Bunda birinchi bosqich "tinglab tushunish", "o'qish", "yozma ish" bo'limlaridan, ikkinchi bosqich "gapirish" bo'limidan tashkil topadi.

Malaka sinovi tegishli maxsus dasturlar asosida kompyuterda o'tkazilganda, barcha bo'limlar qamrab olingan holda bir bosqichda amalga oshiriladi.

43<sup>3</sup>. Chet tili fani o'qituvchilari uchun o'quv (maxsus) fani bo'yicha malaka sinovlariga jalb etiladigan imtihon komissiyasi a'zolari va kuzatuvchilar bilan shartnoma tuziladi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

43<sup>4</sup>. "Tinglab tushunish", "o'qish" bo'limlari bo'yicha bilimlar maxsus dasturlar yordamida kompyuterda tekshiriladi. "Yozma ish" va "gapirish" bo'limlari bo'yicha bilimlar maxsus dasturlar yordamida vakolatli vazirliklarning mas'ul tarkibiy bo'linmasi nazorati ostida imtihon komissiyasi tomonidan tekshiriladi va natijalari rasmiylashtiriladi.



*(43<sup>4</sup>-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-dekabrda 692-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 09/23/692/0997-son)*

43<sup>5</sup>. Chet tili fani o'qituvchilari uchun o'quv (maxsus) fani bo'yicha malaka sinovi jarayonida:

“tinglab tushunish” uchun — 30 daqiqa;

“o'qish” uchun — 45 daqiqa;

“yozma ish” uchun — 30 daqiqa;

“gapirish” uchun — 10 daqiqa vaqt ajratiladi.

43<sup>6</sup>. Malaka sinovida:

“tinglab tushunish”, “o'qish” bo'limlarining har biri 30 ta savoldan;

“yozma ish” bo'limi 120 — 150 ta so'zdan iborat topshiriqdan;

“gapirish” bo'limi topshiriqlarning 3 ta turidan iborat bo'ladi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

43<sup>7</sup>. Vakolatli vazirliklar malaka sinovi natijalarini sinov yakunlangan kundan boshlab bir haftadan kechikmasdan, Internet jahon axborot tarmog'idagi rasmiy veb-saytida e'lon qiladi.

*(43<sup>7</sup>-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-dekabrda 692-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 09/23/692/0997-son)*

43<sup>8</sup>. Chet tili fani o'qituvchilari uchun o'quv (maxsus) fanidan malaka sinovi har bir bo'limining eng yuqori bahosi 20 ballni va barcha bo'limlar uchun maksimal baho 80 ballni tashkil etadi.

43<sup>9</sup>. Chet tili fani o'qituvchilari uchun o'quv (maxsus) fanidan malaka sinovini tashkil etish va o'tkazish bilan bog'liq jarayonlarda ishtirok etadigan Ta'lim inspeksiyasi xodimlari, imtihon komissiyasi a'zolari, sinov materiallarini tayyorlaydigan ekspertlar va mutaxassislarni xalqaro hamda xorijiy tashkilotlar tomonidan o'qitish hamda metodik yordam ko'rsatish bilan bog'liq xarajatlar Ta'lim inspeksiyasining Davlat budjetidan ajratilgan mablag'lari doirasida hamda budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan qoplanadi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

43<sup>10</sup>. Pedagog kadr quyidagi hollarda malaka sinovlaridan chetlashtiriladi:

*(43<sup>10</sup>-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-dekabrda 692-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 09/23/692/0997-son)*

sinov o'tkazilayotgan auditoriyaga har qanday adabiyot, shpargalka yoki telekommunikatsiya va texnika vositalarini olib kirsas;

sinov o'tkazilayotgan vaqtda boshqa ishtirokchilar bilan muloqot qilsa;

savollarni ko'chirib olishga hamda sinov materiallarini auditoriyadan olib chiqishga harakat qilsa;

sinov materiallarini boshqa talabgorlarga bersa, sinovni o'tkazish jarayoniga xalaqit qilsa;

sinov jarayoniga boshqa talabgorning o'rniga kirganligi aniqlansa;

sinovlar uchun ajratilgan vaqt tugagandan so'ng sinov materiallarini topshirishdan bosh tortsa;

sinovlar jarayonida videokuzatuvlar orqali talabgorning tartib va qoidalarga amal qilmaganligi aniqlansa.

*(43<sup>1</sup>-43<sup>10</sup>-bandlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-oktabrda 612-sonli qaroriga asosan kiritilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 20.10.2022-y., 09/22/612/0949-son)*

44. Ikkita bosqich natijalariga ko'ra:

a) oliy malaka toifali yoki bosh o'qituvchi lavozimidagi pedagog kadr:

80 ball va undan yuqori ko'rsatkichga ega bo'lsa — attestatsiyadan o'tgan, oliy malaka toifasi (bosh o'qituvchi lavozimi) saqlangan;

80 balldan kam ko'rsatkichga ega bo'lsa — attestatsiyadan o'tmagan, birinchi malaka toifasiga (yetakchi o'qituvchi lavozimiga) tushirilgan (navbatdan tashqari attestatsiyaga jalb etilgan pedagog kadrlar bundan mustasno);

b) birinchi malaka toifali yoki yetakchi o'qituvchi lavozimidagi pedagog kadr:

80 ball va undan yuqori ko'rsatkichga ega bo'lsa — attestatsiyadan o'tgan, oliy malaka toifasi (bosh o'qituvchi lavozimi) berilgan;

70 balldan 79 ballgacha ko'rsatkichga ega bo'lsa — attestatsiyadan o'tgan, birinchi malaka toifasi (yetakchi o'qituvchi lavozimi) saqlangan;

70 balldan kam ko'rsatkichga ega bo'lsa — attestatsiyadan o'tmagan, ikkinchi malaka toifasiga (katta o'qituvchi lavozimiga) tushirilgan (navbatdan tashqari attestatsiyaga jalb etilgan pedagog kadrlar bundan mustasno);

v) ikkinchi malaka toifali yoki katta o'qituvchi lavozimidagi pedagog kadr:

70 ball va undan yuqori ko'rsatkichga ega bo'lsa — attestatsiyadan o'tgan, birinchi malaka toifasi (yetakchi o'qituvchi lavozimi) berilgan;

60 balldan 69 ballgacha ko'rsatkichga ega bo'lsa — attestatsiyadan o'tgan, ikkinchi malaka toifasi (katta o'qituvchi lavozimi) saqlangan;

60 balldan kam ko'rsatkichga ega bo'lsa — attestatsiyadan o'tmagan, mutaxassis (oliy ma'lumotli o'qituvchi) lavozimiga tushirilgan (navbatdan tashqari attestatsiyaga jalb etilgan pedagog kadrlar bundan mustasno);

g) mutaxassis yoki oliy ma'lumotli o'qituvchi lavozimidagi pedagog kadr:

60 ball va undan yuqori ko'rsatkichga ega bo'lsa — attestatsiyadan o'tgan, ikkinchi malaka toifasi (katta o'qituvchi lavozimi) berilgan;

55 balldan 59 ballgacha ko'rsatkichga ega bo'lsa — attestatsiyadan o'tgan, mutaxassis (oliy ma'lumotli o'qituvchi) lavozimi saqlangan;

55 balldan kam ko'rsatkichga ega bo'lsa — attestatsiyadan o'tmagan, mutaxassis (oliy ma'lumotli o'qituvchi) lavozimiga muvofiq emas deb (navbatdan tashqari attestatsiyaga jalb etilgan pedagog kadrlar bundan mustasno) hisoblanadi.

Navbatdan tashqari attestatsiyaga jalb etilgan pedagog kadrlar attestatsiyadan o'ta olmagan taqdirda, ularning malaka toifasi (lavozimi) tushirilmaydi hamda ular lavozimiga muvofiq emas deb hisoblanmaydi.

Mutaxassis (oliy ma'lumotli o'qituvchi) lavozimidagi pedagog kadrlar navbatdagi majburiy attestatsiyadan o'ta olmagan taqdirda, ish beruvchi xodimning malakasi yetarli bo'lmaganligi sababli u bilan tuzilgan mehnat shartnomasini mehnat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda bekor qilish huquqiga ega.

*Oldingi tahrirga qarang.*

44<sup>1</sup>. Ish beruvchi mehnat shartnomasini bekor qilmagan taqdirda, navbatdagi majburiy attestatsiyadan o'ta olmagan mutaxassis (oliy ma'lumotli o'qituvchi) lavozimidagi pedagog kadr navbatdan tashqari attestatsiyaga ko'pi bilan uch marta jalb etiladi. Bunda uch martadan birortasida ham navbatdan tashqari attestatsiyadan o'ta olmagan yoki uzrli sababsiz (kasallikka chalinishi oqibatida uzoq muddatli mehnatga qobiliyatsizlik hamda davlat yoki jamoat vazifalarini bajarganligidan tashqari hollarda) attestatsiyada ishtirok etmagan pedagog kadr bilan tuzilgan mehnat shartnomasi xodimning malakasi yetarli bo'lmaganligi sababli bekor qilinadi.

*(44<sup>1</sup>-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-oktabrdagi 612-sonli qaroriga asosan kiritilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 20.10.2022-y., 09/22/612/0949-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

45. Pedagog kadrlar attestatsiyada uzrli sababga (vaqtincha mehnatga qobiliyatsizligi, davlat yoki jamoat vazifalarini bajarganligi, respublika va xalqaro musobaqalarda ishtirok etganligi, vaqtincha xorijiy mamlakatda safarda bo'lganligi, yaqin qarindoshining vafoti, vakolatli davlat organi yoki ta'lim tashkilotlari rahbarlarining ma'lumotnomasida ko'rsatilgan boshqa asoslarga) ko'ra kelmagan bo'lsa, ularning attestatsiyasi boshqa muddatga ko'chiriladi.

*(45-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-dekabrda 692-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 09/23/692/0997-son)*

46. Pedagog kadr uzrsiz sababga ko'ra attestatsiyada ishtirok etmagan bo'lsa, u attestatsiyadan o'tmagan hisoblanadi hamda uning tegishli malaka toifasi (lavozimi) bir pog'ona tushiriladi.

Uzrsiz sababga ko'ra attestatsiyada ishtirok etmagan mutaxassis (oliy ma'lumotli o'qituvchi) lavozimidagi pedagog kadr attestatsiyadan o'tmagan hisoblanadi hamda ish beruvchi xodimning malakasi yetarli bo'lmaganligi sababli u bilan tuzilgan mehnat shartnomasini mehnat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda bekor qilish huquqiga ega.

*Oldingi tahrirga qarang.*

47. Attestatsiya yakunlanganidan so'ng bir oy muddatda vakolatli vazirliklar rahbarining buyrug'i (qarori) bilan attestatsiya natijalariga ko'ra oliy, birinchi va ikkinchi malaka toifalari hamda bosh, yetakchi va katta o'qituvchi lavozimlari berilgan pedagog kadrlarning ro'yxati tasdiqlanadi hamda ro'yxatga asosan pedagog kadrlarga mazkur Nizomga 9-ilovaga muvofiq shakldagi QR-kod qo'yilgan elektron shakldagi sertifikatlar (keyingi o'rinlarda — sertifikat) vakolatli vazirliklarning rasmiy veb-sayti orqali onlayn generatsiya qilinadi

*(47-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-dekabrda 692-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 09/23/692/0997-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Navbatdagi majburiy va navbatdan tashqari attestatsiya natijalariga ko'ra malaka toifasi (lavozimi) oshirilgan yoki saqlangan, shuningdek, navbatdagi majburiy attestatsiya natijalariga ko'ra malaka toifasi (lavozimi) tushirilgan pedagog kadrlarning oylik ish haqlariga kiritiladigan o'zgarishlar avtomatik tarzda hisoblab chiqarilishi uchun vakolatli vazirliklarning rasmiy veb-sayti UzASBO yoki boshqa moliyaviy hisob-kitob dasturlari hamda maktab boshqaruv (ERP) dasturlari bilan integratsiya qilinadi.

*(47-bandning ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-dekabrda 692-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 09/23/692/0997-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Pedagog kadrlar davlat xizmatlari markaziga borish yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali yoxud vakolatli vazirliklarning rasmiy veb-saytida joylashgan shaxsiy kabinetiga kirish orqali elektron shakldagi sertifikatni yuklab olishi mumkin.

*(47-bandning uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-dekabrda 692-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 09/23/692/0997-son)*

48. Pedagog kadrlarning bazaviy tarif stavkalari miqdori, ularning malaka toifasi yoki lavozimi sertifikat asosida belgilanadi hamda ularning ish haqlari sertifikat generatsiya qilingan kundan boshlab qayta hisoblanadi.

49. Attestatsiyadan o'tganlik muddati tugagan va navbatdagi majburiy attestatsiyadan ozod etilmagan pedagog kadrlarga mutaxassis (oliy ma'lumotli o'qituvchi) lavozimi bo'yicha haq to'lanadi.

50. Attestatsiyadan o'tganlik muddati tugab, mutaxassis (oliy ma'lumotli o'qituvchi) lavozimi bo'yicha haq to'lanayotgan pedagog kadrlar navbatdagi majburiy attestatsiyaga oxirgi olgan malaka toifasi (lavozimi) bo'yicha jalb qilinadi.

#### **4-bob. Attestatsiya natijalari yuzasidan murojaat qilish**

51. Attestatsiya natijalaridan norozi bo'lgan pedagog kadrlar natijalar e'lon qilingan kundan boshlab o'n kun mobaynida apellatsiya komissiyasiga yozma ravishda ariza (shikoyat) berishlari mumkin.

*Oldingi tahrirga qarang.*

52. Apellatsiya komissiyasi attestatsiya boshlangandan keyin o'n kun ichida vakolatli vazirliklar rahbarlarining buyrug'iga (qaroriga) ko'ra yetti kishidan iborat tarkibda tuziladi.

Apellatsiya komissiyasi tarkibi vakolatli vazirliklar rahbarining o'rinbosari (komissiya raisi), sohaga mas'ul tarkibiy bo'linmasi rahbari (komissiya raisi o'rinbosari), vakolatli vazirlik xodimlari (bir nafari — komissiya kotibi), kasaba uyushmasi vakili hamda xodimlaridan iborat bo'ladi.

Apellatsiya komissiyasiga murojaat qilish yozma ravishda yoki vakolatli vazirlikning rasmiy veb-sayti orqali elektron tarzda amalga oshiriladi.

*(52-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-dekabrda 692-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 09/23/692/0997-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

53. Apellatsiya komissiyasining tarkibi va ish tartibi apellatsiya komissiyasini tashkil etish to'g'risidagi buyruqda (qarorda) belgilanadi.

*(53-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-dekabrda 692-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 09/23/692/0997-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Apellatsiya komissiyasining murojaatlarni masofadan turib onlayn tarzda ko'rib chiqish vaqtlari to'g'risidagi ma'lumotlar vakolatli vazirliklarning rasmiy veb-saytiga joylashtiriladi.

*(53-bandning ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-dekabrda 692-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 09/23/692/0997-son)*

54. Apellatsiya komissiyasi tarkibiga ishchi guruhlar tarkibidan a'zo kiritilmaydi.

55. Apellatsiya komissiyasi muammoli holatlarga aniqlik kiritish uchun jamoatchilik asosida malakali mutaxassislarni jalb etishi mumkin.

56. Apellatsiya komissiyasi yig'ilishida komissiya a'zolarining yarmidan ko'pi ishtirok etsa, uning qabul qilgan qarori qonuniy kuchga ega bo'ladi.

57. Ariza (shikoyat) ro'yxatga olingan kundan boshlab o'n kun muddatda ko'rib chiqiladi.

58. Murojaat etuvchi pedagog kadrlar apellatsiya komissiyasi tomonidan murojaati ko'rib chiqilishi jarayonida bevosita yoki masofadan turib onlayn tarzda ishtirok etishi mumkin.

59. Apellatsiya komissiyasi pedagog kadrning attestatsiya jarayonlariga oid murojaatini ko'rib chiqib, quyidagi qarorlardan birini qabul qiladi:

pedagog kadrning to'g'ri baholanganligi, o'quv fani bo'yicha test va malaka sinovi materiallarida xato va kamchiliklar, shuningdek, sinovlarni o'tkazish jarayonida tashkiliy-texnik jihatdan kamchiliklar aniqlanmagan taqdirda, attestatsiya natijalarini o'zgartirishsiz qoldirish;

pedagog kadrning pedagogik mahorati va psixologik tayyorgarligi noto'g'ri baholanganligi, o'quv fani bo'yicha test yoki malaka sinovi materiallarida xato va kamchiliklar mavjudligi aniqlangan taqdirda, attestatsiya natijalarini o'zgartirish;

o'quv fani bo'yicha test yoki malaka sinovlarini o'tkazish jarayonida tashkiliy-texnik jihatdan kamchiliklar mavjudligi aniqlangan taqdirda, test sinovlarining qaytadan topshirilishini tashkil etish.

60. Apellatsiya komissiyasi qarori nusxasi murojaat etuvchi pedagog kadrqa apellatsiya komissiyasi qarori chiqqan kundan e'tiboran besh kun muddatda taqdim etiladi.

## **5-bob. Yakunlovchi qoidalar**

*Oldingi tahrirga qarang.*

61. Vakolatli vazirlik hamda manfaatdor vazirliklar va idoralarning qo'shma qarori, vakolatli vazirliklarning buyrug'i (qarori) yoki apellatsiya komissiyasi qarori yuzasidan pedagog kadrlar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda sudga shikoyat qilishi mumkin.

*(61-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-dekabrda 692-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 09/23/692/0997-son)*

62. Ushbu Nizom talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Maktabgacha, umumiy o'rtta, o'rtta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomga  
1-ILOVA

**Maktabgacha, umumiy o'rtta, o'rtta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarining attestatsiyasini tashkil etish va o'tkazish**

**SXEMASI**

Bosqichlar	Ijrochilar	Tadbirlar	Muddatlar
<b>1-bosqich</b>	<p>Ta'lim tashkilotlari</p> <p>Vakolatli vazirliklar, manfaatdor vazirliklar va idoralar</p>	<p>Pedagog kadrlarni attestatsiyadan o'tkazish tartibi bilan tanishtirish, pedagog kadrlarning pedagogik mahorati va psixologik tayyorgarligini baholash hamda baholash natijalari yuzasidan ma'lumotnomani ularga taqdim etish.</p> <p>Madaniyat va san'at, jismoniy tarbiya va sportga ixtisoslashtirilgan ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlari, shuningdek, ta'lim tashkilotlari jismoniy tarbiya fani o'qituvchilari uchun ijodiy, nazariy va amaliy sinovlarni o'tkazadigan ishchi guruhlar tarkibini tasdiqlash.</p>	<p>Har yili aprel — iyul va sentyabr — dekabr oylarida</p> <p>Har yili 1-fevral va 1-sentabrga qadar</p>
<b>2-bosqich</b>	<p>Pedagog kadrlar, davlat xizmatlari markazlari, vakolatli vazirliklar</p> <p>Vakolatli vazirliklar</p> <p>Vakolatli vazirliklar, manfaatdor vazirliklar va idoralar</p>	<p>Attestatsiyadan o'tish uchun pedagog kadrlar tomonidan davlat xizmatlari markazlari yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali yoxud vakolatli vazirliklar rasmiy veb-sayti orqali hujjat topshirish.</p> <p>Pedagog kadrlarning mutaxassislik fani va kasb standarti bo'yicha bilim darajasini baholash hamda pedagogik mahoratini aniqlash, o'quv fani bo'yicha malaka sinovlaridan o'tkazish.</p> <p>Madaniyat va san'at, jismoniy tarbiya va sportga ixtisoslashtirilgan ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlari, shuningdek, ta'lim tashkilotlari jismoniy tarbiya fani o'qituvchilari uchun ijodiy, nazariy va amaliy sinovlarni o'tkazish va baholash.</p>	<p>Har yili yanvar-fevral va avgust-sentyabr oylarida</p> <p>Har yili mart — may, oktyabr — noyabr oylarida</p> <p>Har yili mart — may, oktyabr — noyabr oylarida</p>
<b>3-bosqich</b>	Vakolatli vazirliklar	Amaldagi malaka toifasi (lavozimi) saqlangan va oshirilgan pedagog kadrlarning ro'yxatini tasdiqlash hamda elektron shakldagi sertifikatlarni vakolatli	Har yili iyun va dekabr oylarida

	Iqtisodiyot va moliya vazirligi	vazirliklarning rasmiy veb-sayti orqali onlayn generatsiya qilish.  Yangidan tasdiqlangan malaka toifalari yoki lavozimlarga asosan pedagog kadrlarning oylik ish haqlarini qayta hisob-kitob qilish.	Har yili 1-iyulga va 1-yanvarga qadar
<b>4-bosqich</b>	Apellatsiya komissiyasi  Apellatsiya komissiyasi	Attestatsiya natijalaridan norozi bo'lgan pedagog kadrlarning murojaatlarini ko'rib chiqish.  Apellatsiya komissiyasi qarori nusxasini murojaat etuvchi pedagog kadrغا taqdim etish.	Murojaat qilingan paytdan boshlab 10 kunda  Komissiya qarori chiqqan paytdan boshlab 5 kunda

*(1-ilovaning matni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-dekabrda 692-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 09/23/692/0997-son)*

Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibi to'g'risidagi **nizomga**  
**2-ILOVA**

*Oldingi tahrirga qarang.*

**Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish bo'yicha davlat xizmatlaridan foydalanish uchun  
SO'ROVNOMA**

(sanasi)

(raqami)

**I. Pedagog kadr haqida ma'lumot:**

1. Familiyasi::
2. Ismi:
3. Otasining ismi:
4. Jinsi:
5. Pasport ma'lumotlari (seriyasi va raqami, jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami):
6. Ta'lim tashkiloti joylashgan tuman (shahar):
7. Ta'lim tashkiloti nomi yoki raqami:
8. Ta'lim tashkiloti turi (oddiy, ixtisoslashtirilgan):
9. Ta'lim tashkilotining tashkiliy-huquqiy shakli (davlat, nodavlat):
10. Attestatsiya turi (navbatdagi, navbatdan tashqari):
11. Attestatsiyadan o'tayotgan o'quv fani:
12. Attestatsiyadan o'tadigan tili:
13. Amaldagi malaka toifasi (lavozimi) to'g'risida ma'lumot (sertifikat seriyasi, raqami va berilgan vaqti):
14. Yashash joyi:

15. Telefon raqami:

16. Elektron pochta manzili (e-mail):

## II. So'rovnoma ilova qilinadigan hujjatlar:

1. Pedagog kadrning ta'lim to'g'risidagi hujjati (xorijiy davlatda ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjatni O'zbekiston Respublikasida tan olish haqidagi guvohnoma);
2. Qayta tayyorlash kurslaridan o'tganligi haqidagi diplom nusxasi (agar mavjud bo'lsa);
3. Pedagog kadrning pedagogik mahorati va psixologik tayyorgarligini baholash natijalari yuzasidan ma'lumotnoma (o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlari pedagoglari uchun).

*(2-ilova O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-dekabrda 692-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 09/23/692/0997-son)*

Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibi to'g'risidagi **nizomga**

### 3-ILOVA

**Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlari tomonidan to'g'ridan-to'g'ri attestatsiyadan o'tmasdan malaka toifasi (lavozim) sertifikatini olish uchun**

### SO'ROVNOMA

(sanasi)

(raqami)

#### I. Pedagog kadr haqida ma'lumot:

1. Familiyasi:	
2. Ismi:	
3. Otasining ismi:	
4. Jinsi:	
5. Pasport ma'lumotlari (seriyasi va raqami, jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami):	
6. Ta'lim tashkiloti joylashgan tuman (shahar):	
7. Ta'lim tashkiloti nomi yoki raqami:	
8. Ta'lim tashkiloti turi (oddiy, ixtisoslashtirilgan):	
9. Ta'lim tashkilotining tashkiliy-huquqiy shakli (davlat, nodavlat):	
10. To'g'ridan-to'g'ri attestatsiyadan o'tmasdan malaka toifasi (lavozim) sertifikatini olishga asos (Nizomning 8, 9 va 10-bandlaridan biri):	
11. Sertifikat olinadigan fan nomi:	
12. Yashash joyi:	
13. Telefon raqami:	
14. Elektron pochta manzili (e-mail):	

#### II. So'rovnoma ilova qilinadigan hujjatlar:

1. Pedagog kadrning ta'lim to'g'risidagi hujjati (xorijiy davlatda ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjatni O'zbekiston Respublikasida tan olish haqidagi guvohnoma);
2. Qayta tayyorlash kurslaridan o'tganligi haqidagi diplom nusxasi (agar mavjud bo'lsa);
3. To'g'ridan-to'g'ri attestatsiyadan o'tmasdan malaka toifasi (lavozim) sertifikatini olish uchun asos bo'ladigan hujjat (Nizomning 8-, 9- yoki 10-bandida ko'rsatilgan hujjatlardan biri).

*Oldingi tahrirga qarang.*

Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizamga  
4-ILOVA

**Pedagog kadrning attestatsiyadan o'tganligi to'g'risidagi sertifikatning  
DAVLAT NAMUNASI**

**O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi**

(sertifikatni berishga vakolatli vazirlik nomi)

**PEDAGOG KADRG A TO'G'RIDAN TO'G'RI BERILGAN MALAKA TOIFASI  
(LAVOZIMI) TO'G'RISIDA SERTIFIKAT**

Sertifikat seriyasi

Sertifikat  
raqami

Pedagog kadr to'g'risida ma'lumot:

Pedagog kadrning shaxsiy  
kodi:

Familiyasi

Ismi

Otasining  
ismi

Tug'ilgan vaqti

Ish joyi

Tayyorlov yoki ta'lim  
yo'nalishi,

mutaxassislik yoxud ixtisoslik  
nomi

To'g'ridan to'g'ri malaka toifasi (lavozim)ni berish uchun asos

(Nizomning 8-, 9- yoki 10-bandlaridagi holatlaridan biri  
ko'rsatiladi)



To'g'ridan to'g'ri berilgan malaka toifasi yoki lavozim

Berilgan sana

Amal qilish muddati

Sertifikatni imzolagan  
shaxs

QR — kod

*(4-ilovaning matni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-dekabrda 692-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 09/23/692/0997-son)*

Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibi to'g'risidagi **nizomga**  
5-ILOVA

**Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarining pedagogik mahorati va psixologik tayyorgarligini**

**BAHOLASH MEZONLARI\***

*Oldingi tahrirga qarang.*

T/r	Baholash obyekti	Ball
<b>I. Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarining pedagogik mahoratini baholash mezonlari</b>		
<b>1-bob. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarining pedagogik mahoratini baholash mezonlari</b>		
a)	ochiq mashg'ulotlar (darslar) o'tganligi uchun:	<b>3 ball</b>
	<i>ikki marta ochiq mashg'ulot (dars) o'tilganda (o'quv yili davomida)</i>	<i>3 ball</i>
	<i>bir marta ochiq mashg'ulot (dars) o'tilganda (o'quv yili davomida)</i>	<i>2 ball</i>
b)	ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablarining tarbiyalanuvchilar tomonidan bajarilishi uchun ( <i>umumiy tipdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlari uchun</i> ):	<b>3 ball</b>
	<i>to'liq bajarilganligi uchun</i>	<i>3 ball</i>
	<i>qisman bajarilganligi uchun</i>	<i>2 ball</i>
	tarbiyalanuvchilar uchun korreksion (rivojlantiruvchi) materiallar yaratgan, metodik tavsiyalar, mualliflik va variativ dasturlar ishlab chiqqanligi uchun ( <i>ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan va qo'shma tipdagi davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlari uchun</i> ):	<b>3 ball</b>
	<i>tarbiyalanuvchilar uchun korreksion (rivojlantiruvchi) materiallar yaratgan, metodik tavsiyalar, mualliflik va variativ dasturlar ishlab chiqqan bo'lsa</i>	<i>3 ball</i>
	<i>mashg'ulot (dars) o'tish uchun ko'rgazmali va tarqatma materiallar, metodik tavsiyalar ishlab chiqqan bo'lsa</i>	<i>2 ball</i>
	<i>mashg'ulot (dars) o'tish uchun ko'rgazmali materiallar ishlab chiqqan bo'lsa</i>	<i>1 ball</i>
v)	maktabgacha ta'lim-tarbiya berish vositalari, shakllari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan ta'lim-tarbiya berish jarayonida foydalanganligi uchun	<b>3 ball</b>

	<i>maktabgacha ta'lim-tarbiya berish vositalari, shakllari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan ta'lim-tarbiya berish jarayonida foydalanganligi uchun</i>	<i>3 ball</i>
	<i>maktabgacha ta'lim-tarbiya berish vositalari va shakllaridan mashg'ulotlar jarayonida foydalanganligi uchun</i>	<i>2-ball</i>
g)	o'quv seminarlari yoki metodik birlashmalarda metodik ishlanmalari bilan ishtirok etganligi uchun:	<b>3 ball</b>
	<i>respublika miqyosida</i>	<i>3 ball</i>
	<i>Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri miqyosida</i>	<i>2 ball</i>
	<i>tuman (shahar) miqyosida</i>	<i>1 ball</i>
d)	pedagog kadrlarning ko'rik-tanlovlar va turli musobaqalarda erishgan yutuqlari uchun:	<b>3 ball</b>
	<i>xalqaro va respublika miqyosida</i>	<i>3 ball</i>
	<i>Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri miqyosida</i>	<i>2 ball</i>
	<i>tuman (shahar) miqyosida</i>	<i>1 ball</i>
<b>Jami</b>		<b>15 ball</b>
<b>2-bob. Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarining pedagogik mahoratini baholash mezonlari</b>		
a)	ochiq dars o'tganligi uchun (har o'quv yilida):	<b>3 ball</b>
	<i>uch marta ochiq dars o'tilgan bo'lsa</i>	<i>3 ball</i>
	<i>ikki marta ochiq dars o'tilgan bo'lsa</i>	<i>2 ball</i>
	<i>bir marta ochiq dars o'tilgan bo'lsa</i>	<i>1 ball</i>
b)	o'quvchilarning o'quv fanidan reyting ko'rsatkichlari uchun (sinf jurnallari asosida)	<b>3 ball</b>
	<i>86 — 100 foiz</i>	<i>3 ball</i>
	<i>71 — 85 foiz</i>	<i>2 ball</i>
	<i>55 — 70 foiz</i>	<i>1 ball</i>
v)	ta'lim berish vositalari, shakllari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan dars jarayonida foydalanganligi uchun	<b>3 ball</b>
	<i>ta'lim berish vositalari, shakllari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan dars jarayonida foydalanganligi uchun</i>	<i>3 ball</i>
	<i>ta'lim berish vositalari va shakllaridan dars jarayonida foydalanganligi uchun</i>	<i>2 ball</i>
g)	pedagog kadrlarning o'quv seminarlari yoki metodik birlashmalarda metodik ishlanmalar bilan ishtirok etganligi uchun ( <i>umumiy tipdagi umumiy o'rta ta'lim muassasalari pedagog kadrlari uchun</i> ):	<b>3 ball</b>
	<i>xalqaro va respublika miqyosida</i>	<i>3 ball</i>
	<i>Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri miqyosida</i>	<i>2 ball</i>
	<i>tuman (shahar) miqyosida</i>	<i>1 ball</i>
	ta'lim oluvchilarni korreksion rivojlantiruvchi metodik tavsiyalar va mualliflik dasturlari materiallari yaratganligi uchun ( <i>jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan umumiy o'rta ta'lim muassasalari pedagog kadrlari uchun</i> ):	<b>3 ball</b>
	<i>ta'lim oluvchilarni tayyorlash uchun rivojlantiruvchi (korreksion) materiallar yaratgan, metodik tavsiyalar va mualliflik dasturlari ishlab chiqqan bo'lsa</i>	<i>3 ball</i>
	<i>dars (mashg'ulot) o'tish uchun ko'rgazmali va tarqatma materiallar, metodik tavsiyalar ishlab chiqqan bo'lsa</i>	<i>2 ball</i>
	<i>dars (mashg'ulot) o'tish uchun ko'rgazmali materiallar yaratgan bo'lsa</i>	<i>1 ball</i>
d)	pedagog kadrlarning professional tanlovlarda ishtirok etganligi uchun:	<b>3 ball</b>
	<i>xalqaro va respublika miqyosida</i>	<i>3 ball</i>
	<i>Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri miqyosida</i>	<i>2 ball</i>
	<i>tuman (shahar) miqyosida</i>	<i>1 ball</i>
<b>Jami</b>		<b>15 ball</b>

<b>3-bob. “Barkamol avlod” bolalar markazlari pedagog kadrlarining pedagogik mahoratini baholash mezonlari</b>		
a)	ochiq mashg‘ulotlar (darslar) o‘tganligi uchun (har o‘quv yilida):	<b>3 ball</b>
	<i>ikki marta</i>	<i>3 ball</i>
	<i>bir marta</i>	<i>2 ball</i>
b)	to‘garak a‘zolarining davlat talablarini o‘zlashtirish reyting ko‘rsatkichlari uchun:	<b>3 ball</b>
	<i>86 — 100 % foiz</i>	<i>3 ball</i>
	<i>71 — 85 % foiz</i>	<i>2 ball</i>
	<i>55 — 70 % foiz</i>	<i>1 ball</i>
v)	to‘garak faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan o‘quv-metodik qo‘llanmalar va metodik tavsiyalar ishlab chiqqanligi uchun	<b>3 ball</b>
	<i>to‘garak faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan o‘quv metodik qo‘llanmalar va metodik tavsiyalar ishlab chiqqanligi uchun</i>	<i>3 ball</i>
	<i>to‘garak faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan metodik tavsiyalar ishlab chiqqanligi uchun</i>	<i>2 ball</i>
g)	ta‘lim berish vositalari, shakllari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan dars jarayonida foydalanganligi uchun	<b>3 ball</b>
	<i>ta‘lim berish vositalari va shakllari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan dars jarayonida foydalanganligi uchun</i>	<i>3 ball</i>
	<i>ta‘lim berish vositalari va shakllaridan dars jarayonida foydalanganligi uchun</i>	<i>2 ball</i>
d)	pedagog kadrlarning professional tanlovlarda ishtirok etganligi uchun:	<b>3 ball</b>
	<i>xalqaro va respublika miqyosida</i>	<i>3 ball</i>
	<i>Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri miqyosida</i>	<i>2 ball</i>
<b>Jami</b>		<b>15 ball</b>
<b>4-bob. Sport turlari bo‘yicha ixtisoslashtirilgan maktab-internatlar, olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlari hamda sport maktablari pedagog kadrlarining pedagogik mahoratini baholash mezonlari</b>		
a)	ochiq dars mashg‘ulotlari o‘tganligi uchun (har o‘quv yilida):	<b>3 ball</b>
	<i>ikki marta ochiq dars o‘tilgan bo‘lsa</i>	<i>3 ball</i>
	<i>bir marta ochiq dars o‘tilgan bo‘lsa</i>	<i>2 ball</i>
b)	ta‘lim oluvchilarning o‘quv fanidan reyting ko‘rsatkichlari hamda sport turlari bo‘yicha to‘garaklarga jalb etilganligi uchun (sinf jurnallari asosida):	<b>3 ball</b>
	<i>86 — 100 foiz</i>	<i>3 ball</i>
	<i>71 — 85 foiz</i>	<i>2 ball</i>
	<i>55 — 70 foiz</i>	<i>1 ball</i>
v)	ta‘lim faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan o‘quv-metodik qo‘llanmalar va metodik tavsiyalar ishlab chiqqanligi uchun	<b>3 ball</b>
	<i>ta‘lim faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan o‘quv-metodik qo‘llanmalar va metodik tavsiyalar ishlab chiqqanligi uchun</i>	<i>3 ball</i>
	<i>ta‘lim faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan metodik tavsiyalar ishlab chiqqanligi uchun</i>	<i>2 ball</i>
g)	ta‘lim berish vositalari, shakllari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan dars mashg‘ulotlari va sport seksiya mashg‘ulotlarini o‘tish jarayonida qo‘llay olsa	<b>3 ball</b>
	<i>ta‘lim berish vositalari, shakllari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan dars mashg‘ulotlari va sport seksiya mashg‘ulotlarini o‘tish jarayonida qo‘llay olsa</i>	<i>3 ball</i>
	<i>ta‘lim berish vositalari va shakllaridan dars mashg‘ulotlari va sport seksiyasi mashg‘ulotlarini o‘tish jarayonida qo‘llay olsa</i>	<i>2 ball</i>
d)	pedagog kadrlarning professional tanlovlarda ishtirok etganligi uchun:	<b>3 ball</b>
	<i>xalqaro va respublika miqyosida</i>	<i>3 ball</i>

	<i>Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri miqyosida</i>	<i>2 ball</i>
	<i>tuman (shahar) miqyosida</i>	<i>1 ball</i>
<b>Jami</b>		<b>15 ball</b>
<b>5-bob. Bolalar musiqa va san‘at maktablari, ixtisoslashtirilgan san‘at va madaniyat maktablari hamda maktab-internatlar pedagog kadrlarining pedagogik mahoratini baholash mezonlari</b>		
a)	ochiq (mahorat) dars mashg‘ulotlari o‘tganlik uchun (har o‘quv yilida):	<b>3 ball</b>
	<i>uch marta ochiq dars o‘tilgan bo‘lsa</i>	<i>3 ball</i>
	<i>ikki marta ochiq dars o‘tilgan bo‘lsa</i>	<i>2 ball</i>
	<i>bir marta ochiq dars o‘tilgan bo‘lsa</i>	<i>1 ball</i>
b)	ta‘lim oluvchilarning o‘quv fanidan reyting ko‘rsatkichlari uchun (o‘quvchilarning shaxsiy ish rejaları asosida):	<b>3 ball</b>
	<i>86 — 100 foiz</i>	<i>3 ball</i>
	<i>71 — 85 foiz</i>	<i>2 ball</i>
	<i>55 — 70 foiz</i>	<i>1 ball</i>
v)	ta‘lim berish vositalari, shakllari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan dars jarayonida foydalanganligi uchun	<b>3 ball</b>
	<i>ta‘lim berish vositalari, shakllari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan dars jarayonida foydalanganligi uchun</i>	<i>3 ball</i>
	<i>ta‘lim berish vositalari va shakllaridan dars jarayonida foydalanganligi uchun</i>	<i>2 ball</i>
g)	pedagog kadrlarning ko‘rik-tanlovlar va turli musobaqalarda erishgan yutuqlari hamda pedagog kadrning ijodiy faoliyatiga doir tanlov va ko‘rgazmalarda ishtirok etganligi uchun:	<b>3 ball</b>
	<i>sovrinli o‘rinni olganligi uchun</i>	<i>3 ball</i>
	<i>ishtirok etganligi uchun</i>	<i>2 ball</i>
d)	pedagog kadrlarning o‘quv seminarlari yoki metodik birlashmalarda metodik ishlanmalari bilan ishtirok etganligi uchun:	<b>3 ball</b>
	<i>Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri miqyosida</i>	<i>3 ball</i>
	<i>tuman (shahar) miqyosida</i>	<i>2 ball</i>
	<i>muassasa miqyosida</i>	<i>1 ball</i>
<b>Jami</b>		<b>15 ball</b>
<b>6-bob. O‘rta maxsus va professional ta‘lim tashkilotlari pedagog kadrlarining pedagogik mahoratini baholash mezonlari</b>		
a)	ochiq darslar o‘tganligi uchun (muntazam ravishda):	<b>3 ball</b>
	<i>uch marta ochiq dars o‘tilgan bo‘lsa (har o‘quv yili davomida)</i>	<i>3 ball</i>
	<i>ikki marta ochiq dars o‘tilgan bo‘lsa (har o‘quv yili davomida)</i>	<i>2 ball</i>
	<i>bir marta ochiq dars o‘tilgan bo‘lsa (har o‘quv yili davomida)</i>	<i>1 ball</i>
b)	o‘quvchilarning o‘quv fanidan reyting ko‘rsatkichlari uchun (sinf jurnallari asosida)	<b>3 ball</b>
	<i>86 — 100 foiz</i>	<i>3 ball</i>
	<i>71 — 85 foiz</i>	<i>2 ball</i>
	<i>55 — 70 foiz</i>	<i>1 ball</i>
v)	ta‘lim berish vositalari, shakllari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan dars jarayonida foydalanganligi uchun	<b>3 ball</b>
	<i>ta‘lim berish vositalari, shakllari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan dars jarayonida foydalanganligi uchun</i>	<i>3 ball</i>
	<i>ta‘lim berish vositalari va shakllaridan dars jarayonida foydalanganligi uchun</i>	<i>2 ball</i>
g)	o‘quv qo‘llanmasi, namunaviy dastur yozishda qatnashganlik, ilmiy maqolalar va boshqa ilmiy yutuqlar uchun:	<b>3 ball</b>
	<i>o‘quv qo‘llanmalar va namunaviy dasturlar yozishda qatnashganligi</i>	<i>3 ball</i>

	<i>o'quv qo'llanmasi yozishda qatnashganligi</i>	<i>2 ball</i>
	<i>ilmiy maqolalar va boshqa ilmiy yutuqlarga erishganligi</i>	<i>1 ball</i>
d)	pedagog kadrlarning turli kasbiy ko'rik-tanlovlari va musobaqalarda erishgan yutuqlari uchun:	<b>3 ball</b>
	<i>xalqaro va respublika miqyosida</i>	<i>3 ball</i>
	<i>Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri miqyosida</i>	<i>2 ball</i>
	<i>tuman (shahar) miqyosida</i>	<i>1 ball</i>
<b>Jami</b>		<b>15 ball</b>
